

“Qalbga yaqin satrlar” ko'rik-tanlovi tashkil etildi

// 29 March 2024 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/qalbga-yaqin-satrlar-ko-rik-tanlovi-tashkil-etildi>



Kuni-kecha "Kimyogarlari" madaniyat saroyida jamiyat ishchi-xodimlarining ijodiy iste'dodlarini oshirish hamda yuzaga chiqarish maqsadida "Qalbga yaqin satrlar" qo'shiqchilik ko'rik-tanlovi tashkil etildi.



Tadbirda korxonaning 9 nafar xodimlari va yoshlari ishtirok etishdi va yakunda:

1-o'rinni Markazlashtirilgan elektr uskunalari ta'mirlash sexi xodimlari - D.Matchanov hamda G.Shermatova;

2-o'rinni Harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi xodimi - J.Jumabayev;

3-o'rin 1-Tozalash sexi xodimlari - D.Baxtiyarova va Sh.Yuldasheva dueti egalladi.



Tadbir so'nggida g'olib va sovrindorlarga diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

"Maxam-Chirchiq" Matbuot xizmati